

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, G.Mirzaaxmedova</b> Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarida.....	17
<b>B.Q.Qurbonova</b> Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar....	22
<b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b> O'zbekistondagi ta'limni tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....	27
<b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdova</b> Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
<b>Sh.A.Ro'zaliyev</b> Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari .....	40
<b>A.R.Abdullayeva</b> Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....	43
<b>N.U.Alijonov</b> Ta'lim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
<b>M.Y.Atadjanov</b> Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili.....	54
<b>N.N.Ahmadjonov</b> Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
<b>M.A.Djalalova</b> Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....	65
<b>N.A.Ergasheva</b> Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
<b>Sh.K.Mamajonova</b> O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....	73
<b>D.M.Mo'minov</b> Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....	81
<b>D.M.Nuralieva</b> O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	87
<b>R.S.Nuriddinov</b> Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
<b>M.J.Rajabov</b> Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....	96
<b>F.S.Soliyev</b> Zamonaviy ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari .....	100
<b>Sh.A.Usmonov</b> Oilada bolaning o'zini anglashida ota-ona shaxsining roli .....	106
<b>M.B.Yuldasheva</b> Yolg'izlik hissining ifodalanish xususiyatlari .....	111
<b>G.S.Yunusova</b> O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....	116
<b>M.S.Zakirova</b> Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida “Men” konsepsiyasining o'rni.....	121
<b>H.A.G'anieva</b> Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
<b>Л.Ю.Абдукадилова, Д.В.Мионов</b> Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA .....	134



UO'K: 373.3.016:811.512.133.1

**O'ZBEKISTONDAGI TA'LIMNI TOJIK TILIDA OLIB BORADIGAN MAKTABLARDA  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA DAVLAT TILINI O'QITISH JARAYONIDA  
MONOLOG VA DIALOGNING O'RNI****РОЛЬ МОНОЛОГА И ДИАЛОГА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОМУ  
ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА, ВЕДУЩИХ  
ОБРАЗОВАНИЕ НА ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКЕ****THE ROLE OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN THE PROCESS OF TEACHING  
STATE LANGUAGE TO PRIMARY CLASS STUDENTS IN SCHOOLS IN UZBEKISTAN THAT  
CONDUCT EDUCATION IN THE TAJIK LANGUAGE****Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent**Maxkamov Mahhurjon Rashidzoda<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekistondagi tojik tilida ta'lim beruvchi maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni tahlil qilinadi. Dialogik va monologik nutqning nazariy asoslari, shuningdek, o'zbek va chet el olimlarining pedagogik qarashlari bayon etiladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda monologik va dialogik nutqning ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda dialogik va monologik nutqni shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar va ularning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun samarali usullar va amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Ushbu maqola pedagoglar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun foydali bo'lib, ta'lim jarayonida davlat tilini o'qitishda monolog va dialogning muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, solishtirma tahlil va amaliy tahlil usullari qo'llanilgan. Nazariy tahlil orqali dialogik va monologik nutqning asoslari hamda pedagogik qarashlar o'rganilgan. Solishtirma tahlil yordamida turli tillar va madaniy kontekstlarda monolog va dialogning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Amaliy tahlil orqali esa o'quvchilarda dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tahlil qilingan va ularning samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari dialogik va monologik nutqni rivojlantirish uchun samarali usullar va amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Ushbu usullar o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi.

**Аннотация**

В данной статье анализируется роль монолога и диалога в процессе обучения государственному языку учеников начальных классов в школах с таджикским языком обучения в Узбекистане. Излагаются теоретические основы диалогической и монологической речи, а также педагогические взгляды узбекских и зарубежных ученых. В статье обсуждается важность монологической и диалогической речи в развитии самостоятельного и творческого мышления учеников начальных классов. Также раскрывается значение упражнений, способствующих формированию диалогической и монологической речи у учащихся. Результаты исследования предлагают эффективные методы и практические рекомендации для развития устной речи учеников начальных классов. Данная статья будет полезна педагогам и специалистам в области образования, так как показывает важность монолога и диалога в процессе обучения государственному языку. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа и практического анализа. С помощью теоретического анализа изучены основы диалогической и монологической речи, а также педагогические взгляды. С помощью сравнительного анализа были проанализированы особенности монолога и диалога в различных языках и культурных контекстах. Практический анализ включал анализ упражнений, направленных на развитие диалогической и монологической речи у учащихся, и оценку их эффективности. Результаты исследования предлагают эффективные методы и практические рекомендации для развития диалогической и монологической речи. Показано, что эти методы имеют важное значение для формирования социальных и культурных навыков у учащихся.

**Abstract**

This article analyzes the role of monologue and dialogue in the process of teaching the state language to primary school students in schools with Tajik as the medium of instruction in Uzbekistan. The theoretical foundations of dialogic and monologic speech, as well as the pedagogical views of Uzbek and foreign scholars, are presented. The

article discusses the importance of monologic and dialogic speech in the development of independent and creative thinking in primary school students. Additionally, it highlights the significance of exercises that contribute to the formation of dialogic and monologic speech in students. The research results offer effective methods and practical recommendations for developing oral speech in primary school students. This article will be useful for educators and specialists in the field of education, as it demonstrates the importance of monologue and dialogue in the process of teaching the state language. The study employs methods of theoretical analysis, comparative analysis, and practical analysis. Through theoretical analysis, the foundations of dialogic and monologic speech and pedagogical views are studied. Comparative analysis is used to examine the unique characteristics of monologue and dialogue in various languages and cultural contexts. Practical analysis involves the examination of exercises aimed at developing dialogic and monologic speech in students and assessing their effectiveness. The research results offer effective methods and practical recommendations for developing dialogic and monologic speech. It is shown that these methods are important for the formation of students' social and cultural skills.

**Kalit soʻzlar:** boshlangʻich taʼlim, monolog, dialog, ikkinchi til, nutq, tayyorlangan va tayyorlanmagan nutq, ogʻzaki nutq, bogʻlanishli nutq, umumiy oʻrta taʼlim, lugʻat, tovush.

**Ключевые слова:** начальное образование, монолог, диалог, второй язык, речь, подготовленная и неподготовленная речь, устная речь, связная речь, общее среднее образование, словарь, звук.

**Key words:** primary education, monologue, dialogue, second language, speech, prepared and unprepared speech, oral speech, connected speech, general secondary education, vocabulary, sound.

## KIRISH

Jahonda lingvodidaktika va nutqiy faoliyatni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, nutqiy koʻnikma hosil qilish texnologiyalari, oʻquv hamda kommunikativ harakatlarni rivojlantirish, turli tillardagi differensial belgilarni tadqiq etish, lakunalarning sema (komponent) tahliliga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa tilni oʻqitishda oʻquvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, nutqiy malakalarni takomillashtirish, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki, yozma shakllarda toʻgʻri va ravon ifodalash koʻnikmalarni shakllantirish, nolisoniy oliy bilim maskani oʻquvchilarining bir-biriga chet tilda nutqiy muloqot qila olish kompetensiyasiga ega boʻlish, oʻrta taʼlim dasturiy materiallarini doimiy korreksiyalash imkoniyatini kengaytirmoqda [1].

Bugungi kunda respublikamizda taʼlim tizimini barqaror rivojlantirishga yoʻnaltirilgan islohotlar, jumladan, yangi oliy taʼlim muassasalari hamda xorijiy davlatlar universitetlari filiallarining ochilishi, qoʻshma fakultetlar tashkil qilinishi, professor-oʻqituvchilar va talabalar almashinuvining yoʻlga qoʻyilishi ikkinchi til taʼlimi meʼyoriy-huquqiy asoslarining yaratilishini taʼminladi. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida “mustaqil fikrlaydigan, qatʼiy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” ustuvor vazifalar sifatida koʻrsatilgan. Bu turli millat vakillarining jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-maʼrifiy hayotida faol ishtirokini taʼminlashga zamin yaratadi [2].

Oʻzbekistondagi tojik tili oʻrta umumtaʼlim maktablari boshlangʻich sinflarida oʻzbek tilining eng muhim amaliy maqsadlaridan biri, albatta, ogʻzaki nutqni oʻrgatish hisoblanadi. Bu oʻrta umumtaʼlim maktablari dasturiy talablariga asosan, oʻquvchilar ogʻzaki nutqda xabar berish, soʻzlasha olish va oʻrganilgan mavzuga bogʻliq oʻzbek tilidagi nutqni tinglab tushuna olish malakalarini egallashlari talab etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda ikkinchi tilni oʻqitish muammolari V.Andriyanova, L.Axmedova, G.Bakiyeva, J.Jalolov, G.Mahkamova, O.Hoshimovalar kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan [1].

Keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda, xususan, M.S.Ismoilov, O.Umarxoʻjayeva, N.S.Sayidraximova, G.Iskandarova, M.Qurbonova, O.Saidaxmedova izlanishlarida, bolalar nutqining fonetik hamda grammatik xususiyatlari, bola nutqiy faoliyatida ijtimoiy muhitning ahamiyati, oʻzbek-tojik ikki tilligidagi bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik xususiyatlari, oʻzbek tilining ona tili hamda ikkinchi til sifatida oʻzlashtirilishida qoʻshimchalar tartibi tadqiq etilgan [8].

Xorijiy mamlakatlarda ikkinchi tilni oʻqitish, xususan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari S.Banvili, D.Nunan, J.Richard, L.Xays, B.Vayt, I.Luka, K.Knep, X.Broun, N.Moxamar, M.Ivenslar ishlarida oʻz aksini topgan [2].

Chet tili yoki ikkinchi til maktab oʻquv dasturiga kiritilganligini hisobga olib, koʻplab tadqiqotchilar bolalarga chet tillarini erta oʻrgatish bilan bogʻliq muammolarni hal etish va oʻrganishga kirishdilar. Chet tili yoki ikkinchi tilni erta oʻrganishning turli jihatlari xorijiy

mutaxassislar, xususan, fransuz M.Garabedian, R.Koen, F.Debiser, M.Korbellari, N.Herr, J.Jirardet, C.Paccanino va boshqalar tomonidan ham ko'rib chiqilgan [3].

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Turli o'quv yurtlarida o'zbek tilida og'zaki nutq (gapirish va tinglab tushunish)ga qo'yilgan dasturiy talablar, uning tilshunoslik (lingvistik) va ruhshunoslik (psixologik) asoslari, dialog (ikki kishining suhbat) va monolog (bir kishining nutqi)ni o'rgatish, nutq faoliyatini reproduktiv hamda retseptiv egallashga doir masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning turli bosqich va tashkiliy qismlarida og'zaki nutqni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar belgilangan, og'zaki nutq malakalarini shakllantirish uchun tavsiya etilgan.

Boshlang'ich sinflarda so'zlashga qo'yiladigan dasturiy talablarni keltirishdan avval mazkur faoliyatni o'zbek tili o'qitishning ayrim bosqich va tashkiliy qismlaridagi o'rni haqidagi fikrlarga bir oz to'xtalish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga o'zbek tilida so'zlashni o'rgatish maktabgacha ta'lim muassasalari (bog'cha)da amaliy ko'rinishga egadir. Bog'chalarda og'zaki nutq, ya'ni erkin gapirish malakalarini shakllantirishga urg'u beriladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa gapirish asosiy maqsad hisoblanmaydi, chunki maktab o'zbek tili ta'limining dastlabki bosqichida ular gapirish va tinglab tushunishni o'rganadilar, oqish va yozish (yozma nutq) vosita sifatida ishlatiladi. O'rta va yuqori bosqichlarda o'qish va tinglash amaliy maqsad maqomini egallaganda, so'zlash vosita vazifasida xizmat qiladi.

O'zbekistondagi tojik tilli maktablari boshlang'ich sinflari o'quv dasturida o'zbek tilida gapirishni o'rganish oraliq ta'limiy maqsad hisoblanib, u ta'lim vositasini ham bajaradi. Vosita maqomida u boshqa nutq turlarini o'quvchilarda yuzaga chiqishiga yordam berishi nazarda tutiladi.

Nutqiy faoliyatni egallash nutqiy ifodalarni yuzaga keltirishning turli mexanizmlari, xususan, zarur nutqiy birliklarni vaziyatga mos holda tanlash va ijodiy ishlash ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Bu, eng avvalo, so'zlar va ularning grammatik shakllarini tanlash va jamlashdan boshlanadi. N. I. Jinkin ushbu fiziologik jarayonni ikki qismga: nutqiy faoliyatni yuzaga keltiruvchi analizator va eshitish analizatoriga bo'lib o'rgangan. Uning qayd qilishicha, birinchi bosqichda so'zlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda esa so'zlarni o'zaro bog'lash jarayoni kuzatiladi. Nutq mexanizmlarini shu tarzda transformatsiyalash, yo'ni shakllanish va takomillashish jarayoni faqat nutqiy faoliyat sharoitida, nutqiy muloqotda yuz beradigan axborot almashinuvi orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu mexanizmlar faqat muloqotga ehtiyoj bo'lganda ishga tushadi. Ikkinchi til ta'limining asosiy vazifasi aynan shu nutq mexanizmlarini ishga tushirish, talabalarning o'rganayotgan tilda axborot almashinuv qobiliyatini ro'yobga chiqarishdan iborat. Buning uchun talabalarda shu tilda gapirish ehtiyojini yuzaga keltirish va ularga mazkur tilning leksik-grammatik imkoniyatlaridan etarli darajada foydalana olishni o'rgatish kerak bo'ladi. Biroq ikkinchi tilda grammatik jihatdan to'g'ri so'zlash ko'nikmalari va nutqiy malakalarini hosil qilish jarayoni osonlik bilan yuz bermaydi. Bunga, albatta, til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj darajasi (tabiiylik yoki sun'iylik holatlar), ikkinchi til va ona tili o'rtasidagi farq-tafovutlar darajasi (til interferensiyasi) katta ta'sir etadi. Shulardan kelib chiqib, ayrim metodik tadqiqotlarda nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, talabalarni fransuz tilida grammatik jihatdan to'g'ri monologik nutq tuzishga o'rgatish yuzasidan tadqiqot ishi olob borilgan. L.V.Volkova o'z izlanishlarida monologic nutqda ifodalanayotgan mazmun va uning grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilishi bosh mezon deb biladi. Uning fikricha, monologik nutq mazmun nuqtai nazaridan tugallangan fikrni ifodalovchi grammatik jihatdan shakllantirilgan va o'zaro uzviy bog'langan kompozitsion butunlikdan iborat [2].

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida "O'zbek tili" fani boshlang'ich ta'limning 2-sinfidan boshlab o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim boshqa tillarda olib boradigan maktablarning 2-4-sinflarida o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni shu sinflarda o'rganiladigan leksik va grammatik materiallar hajmida o'zbek tilida fikr bayon etish va fikr almashishga, matnlardan (bolalar uchun mo'ljallangan davriy matbuot materiallaridan) axborot olishga o'rgatish, o'zbek adabiyoti durdonalaridan bahramand etish, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy ma'naviyatidan, urf-odatlarini, udumlaridan xabardor qilish, sharqona odod-axloq bilan tanishtirish, o'zbek xalqiga va uning milliy ma'naviyatiga hurmat hissini uyg'otishdan iborat [4].

2-sinfda "Alifbo" davrida faqat nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, o'qish va yozishni o'rgatish, 3-4 sinfda o'quv dasturida muayyan nutq mavzulari bo'yicha so'zlarni va nutq namunalarini o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, 2-sinfning birinchi yarim yili talaffuz qilish, o'qish va yozish faoliyatlari bo'yicha, 2-sinfning ikkinchi



yarmidan boshlab esa belgilangan nutq mavzusi bo'yicha berilgan lug'at minimumi va nutq namunalarini tinglab tushunish va so'zlash, talaffuz qilish, o'qish va yozish ko'nikmalari shakllantirishga qaratiladi [4].

O'zbekistondagi tojik tilli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari o'zbek tili ta'limida gapirish malakalarini shakllantirish bo'yicha ikkinchi sinfdan ish olib boriladi.

Til ta'limi jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga ham alohida e'tibor berish lozim, chunki har qanday nutq avval ichki nutq holatida boshlanib, keyin tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. B.F.Bayevning fikricha, "o'quv faoliyati inson hayotida uning ichki nutqining turli shakl va vazifalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi". Ichki nutq faoliyatini tadqiq qilish, ayniqsa ikkinchi til ta'limida katta ahamiyatga ega. Nutqning yuzaga chiqishi, avvalo, uning lingvistik jihatlariga bog'liq bo'ladi. Gapirish jarayonida til materiallarini o'zaro bog'liq holda qo'llash taqozo etiladi. Nutqning og'zaki va yozma, monologik, dialogik shakllari ham mavjud bo'lib, ular turli lingvistik vositalarni qo'llashni talab qiladi [2].

Nutq jarayoni nutqni yuzaga keltiruvchilar ishtirokiga ko'ra monolog, dialog va poliolog turlariga ham bo'linadi. Bir shaxs nutqi monolog deb atalib, faqat sozlovchi yoki matn tuzuvchi tilidan yoziladi yoki og'zaki bayon qilinadi. Monolog yunoncha monos – bir va logos – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, bir shaxs tomonidan fikrlarning davomiy tarzda izchillik va uzviy bog'liq holda bayon etilishidir. Ikki shaxs nutqi esa dialog deb atalib, unda so'zlovchi va tinglovchi o'rasida fikr almashish jarayoni, o'zaro suhbat, savol-javoblar ifoda qilinadi. Muloqotda ikkidan ortiq shaxs ishtirok etsa, bunday nutq turi poliolog deb nomlanadi. Demak, monolog yakka shaxsning nutqi sifatida, dialog ikki kishining suhbat sifatida, poliolog esa bir necha shaxsning o'zaro muloqoti sifatida tavsiflanadi. Ushbu nutq turlarining har biri o'ziga xos lisoniy va psixologik xususiyatlarga ega [5].

Monologik nutqning birlamchi muhimxususiyati uning uzviyligi bo'lib, bunda so'zlovchi axborotni mavzuga yo'naltiruvchi qo'shimcha savollar yordamisiz izchil tarzda bayon etishi zarur bo'ladi. Buning uchun fikr bir qadar yoyiq, bir qadar kengroq ifodalanishi, jumlar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi va ongli ravishda tanlab ishlatilishi talab etiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, yoyiq va uzluksiz shaklda bayon etilayotgan monolog axborot, ayni paytda, tugallangan xarakterga ham ega bo'lishi kerak. Buning uchun dastlab, axborot mavzusi shakllantirilishi, so'ngra u izchil ravishda kengaytirib borilishi, axborot so'ngida aytilganlardan xulosa chiqarilishi talab etiladi. So'zlovchi o'z fikrining bayoni davomida uning mantiqiy izchilligiga diqqat-e'tibor qaratishi, uzuq-yuliy so'zlamasligi, izchillikka erishish uchun esa aytmog'chi bo'lgan fikrlarini avvaldan rejalashtirib olishi kerak bo'ladi. Bog'lanishli monologik nutq lingvistik nuqtai nazaridan dialogik nutqqa qaraganda to'liqligi, yoyiqligi, bayoniy shaklda ifodalanishi bilan tavsiflanadi. Nutqning ushbu turida kitobiy nutqqa xos sintaktik birliklar, chunonchi, jumlalar bog'lovchi payt ravishlari (so'ng, so'ngra, keyin, avval, oldin, dastlab), sabab-natija ma'nosini ifodalovchi so'zlar (shuning uchun, shu sababli, shu bois, chunki, natijada, oqibatda), ketma-ketlikni, izchillikni ifodalovchi ravishlarni (ketma-ket, birma-bir, birin-ketin)ni to'g'ri qo'llash, gapda so'zlar tartibi, bog'lovchi va bog'lovchi vositalarni to'g'ri ang'lay olishga bog'liq bo'ladi, jestlar, mimika kabilardan ham foydalanishi kerak bo'ladi [2].

So'zlashish yakkanutq (monolog) va juftnutq (dialog) shakllarida o'rganiladi hamda ular o'ziga xos xususiyatga egadir. Dialog va monologni rivojlantirish yolg'iz nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirishdan iborat emas. Juftnutq (dialog) va yakkanutq(monolog)ni o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining eng asosiy va muhim tarkibiy qism sanaladi. O'zbekistondagi tojik tilli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sheriklari bilan ikkinchi til(o'zbek til)da dialogik (juftnutq) nutq qilish sherikning nuqtayi nazarini, uning qiziqishlari, kayfiyatini, istaklarini hisobga olishni ham ko'zda tutadi. Shuningdek, dialogik nutq orqali ular aloqa (intellektual mazmun) va ravonlikni o'z manfaatlariga yo'nalishini ta'minlaydilar.

O'quvchining harakati leksika, grammatika va talaffuzni egallashga yo'naltiriladi. Yakkanutqda (monolog) murakkab sintaktik va leksik shakllar ishlatiladi. Ular ko'pincha yozma nutq materialiga yaqin turadi [6].

Juftnutqda qisqartirilgan birliklar tilning barcha hodisalariga taalluqli bo'ladi. Bu nutqning erkinligidan dalolat beradi. Juftnutqning asosini turli replikalar tashkil etadi. Replikalar gapirishga undovchi va javob jumlaridan iborat bo'ladi. Replikalar birikuvidan dialogik birlik hosil qilinadi.

## PEDAGOGIKA

Ulardan savol – javob, savol – savol, xabar – savol, xabar – xabar, xabar – qo‘shimcha xabar, gapga undash – xabar, gapga undash – savol singarilar juftnutqda keng tarqalgan [6].

Juftnutq (dialog)ning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: 1) ajralmaslik ikki replika (dialogik birlik)ning nutqiy vaziyatga mos kelishi; 2) juftning faqat savol-javob emas, balki turli replikalarning almashishi natijasidir; 3) dialogik birlikdagi ellips va qisqartmalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi; 4) suhbatdoshning replikasi sheriginiki bilan mazmunan bog‘lanishi. Undovchi (stimul) replikani avvalo tushunib, so‘ngra javob (reaksiya) replikasi aytiladi. Juftnutqda ikki va undan ortiq sheriklar navbatma-navbat axborot almashadilar. Juftnutqni oldindan tayyorlash imkoniyati yoq. Nutq oqimida turli-tuman fikrlar almashinadi [6].

Monologik nutqni turlarga ajratishda ham fikrlar turli bo‘lib, jumladan, A.P.Zaporojchenko monologik nutqni vasifasiga ko‘ra obrazli bayoniy monolog, konkret bayoniy monolog, monolog – muhokama, monolog – hikoya, monolog – da‘vat, monolog – ishonch, monolog – xulosa tiplarga, X.D.Barannik esa funksional xususiyatlariga ko‘ra: axborot – sharh, axborot – bayon, sof ilmiy, o‘quv, ommabop, sof ommabop, sud-huquq, rasmiy, tantanali nutq turlariga; tuzilish xususiyatlariga ko‘ra: tayyorlangan va tayyorlanmagan nutq turlariga; nutq vaziyatiga ko‘ra bevosita yoki bilvosita aloqador turlarga bo‘lib o‘rgangan. L.V.Volkova monologik nutqni xarakteri va kommunikativ-nutqiy maqsadiga ko‘ra 6 ta (bayon etish, tavsiflash, axborot berish, hikoya qilish, taqriz, hisobot) turga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi. O.A.Nechayeva monologic nutqni bayoniy monolog, tasviriy monolog, muhokama turlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi, L.T.Ahmedova ushbu turlar qatoriga tavsifnomani ham kiritishni tavsiya etadi [2].

Yakkanutq(monolog) ham o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi: 1) nisbatan uzluksiz hukm suradi, birdan ortiq jumla aytiladi, binobarin fikr bog‘langan holda bayon qilinadi; 2) mazmunan izchillik kuzatiladi, ifodalanadigan g‘oyalar tayanch jumlar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi; 3) fikr-mulohazaning ma‘lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi. Yakkanutq(monolog) bir kishi nutqi bo‘lib, ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog‘lanadi, nutq ohangi va mazmuni jihatidan qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltiriladi. Yakkanutq operatsiyalari tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) axborot predmeti, ya‘ni nima haqida gapirish aniqlanadi (mas. predmet tasviri – narsaning nomi, rangi, turgan joyi kabilar gapiriladi; predmetga munosabat bildirish – yoqadi/yoqmaydi, yaxshi/yomon; sinf, maktab, uy haqida gapirish; rasmni tasvirlab berish va h.k); 2) o‘zlashtirilgan til hodisalarning xotira “ombori”dan keraklisini tanlab ishlatishga harakat qilinadi (nimalardir tayyor holda olinadi, boshqalarini almashtrish, kengaytirish, qo‘shish, biriktirish mumkin bo‘ladi; 2) mo‘ljalga ko‘ra fikrni tashqi nutqda aytish [6].

Har qanday faoliyatni o‘rgatish paytida mashq markaziy o‘rinni egallaydi. Nutq malakalarini o‘zlashtirish deganda, kichik hajmli sodda birliklardan (so‘z, so‘z birikmasi gapdan) boshlanib, yirik miqyosdagi murakkab matngacha bo‘lgan nutq hodisalarini o‘z ichiga olgan mashq jarayoni tushuniladi. Bularning hammasi oqibat natijada mashqlar majmuyini tashkil etadi. Tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko‘nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o‘taydi. Odatda, ular o‘quv mashqlari nomi bilan yuritiladi [6].

O‘zbekistondagi tojik tilli maktablarda o‘zbek tili darsi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining juftnutq (dialog) va toqnutq (monolog) kabi nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy mashqlardan biri deb, ularning lug‘at boyliklarini oshirish nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z ma‘nosini tushuntirish va izohlashdan tashqari, rangli syujetli rasmlar va tabiat qo‘yniga sayohat ham ularning lug‘at zaxiralarining kengayishiga olib keladi va ular so‘zlardan amaliy foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Rang va boshqa belgilarni bildiruvchi, his-tuyg‘u, munosabat, axloqiy tushunchalar va holatni ifodalaydigan so‘zlar ustida olib boriladigan lug‘aviy ishlar, leksik mashqlar o‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, lug‘at zahirasi boyitishga xizmat qiladi [7].

Lug‘at ishlariga doir til ta‘limida integratsiyalashgan darslardan foydalanish, mashqlar matnidagi ma‘nodosh so‘zlarni aniqlash va ular orasidagi yaqinlikni izohlashda turli ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini boyitishda hamda faollashtirishda muhim o‘rin tutadi [7].

Juftnutq va yakkanutq maktab sharoitida quyidagi izchillikda o‘rgatiladi: Tayyorlov mashqlari: 1. Taqlid qilish (material o‘zgartirilmaydi yoki qisman o‘zgarish yuz beradi). 2. Mantiqiy

operatsiyalar almashtirish, qayta taqsimlash va shaklini o'zgartirib aytishlarni qo'llash. 3. Jummalarni taqlidan yoki mustaqil tuzish. 4. Jumla tuzish va jummalarni guruhlab aytish.

Nutqiy mashqlar. Tayyorlangan gapirish malakalarini o'stirishga mo'ljallangan mashqlar: a) tayanch so'z, gapirish rejasi, sarlavha kabilarga suyanib, fikrni o'zgartirib va to'ldirib bayon etish; b) axborot manbalari (rasm, kino va diafilm, matn kabilardan)dan foydalanib, fikr izhor etish; d) o'rganilgan mavzuga asoslanib fikr aytish.

Tayyorlanmagan nutqni o'rgatish mashqlari: a) ona tilidagi hikoya, rasm, ovozsiz film kabi axborot asoslariga tayanib gapirish; b) oldin ko'rgan yoki o'qigan, o'ylagan, xayolidan o'tkazgan fikr-mulohazalaridan tarkib topgan hayot tajribasidan kelib chiqib gapirish. Tayyorlanmagan va tayyorlangan nutqiy mashqlardan namunalar beriladi [6].

Darhaqiqat, bog'lanishli nutqni o'stirish vazifalari qisqa fursatda ya'ni bir-ikki mashqdan keyin tegishli nutqiy ravonlik darajasini bermaydi. Nutqiy ravonlik bir qator mashqlar so'ngidagina qo'lga kiritiladi. Y.I.Passov fikricha, muayyan til ko'nikmalarini shakllantirish qat'iy reja asosidagi leksik-grammatik va nutqiy mashqlarni bajarish talab etiladi [4].

Kundalik muomalada so'zlashuv ko'proq dialog shaklida ro'y beradi. Dialogik nutq tarkibida monolog unsurlari ham ishtirok etadi. Demak, o'quvchilarga monologik va dialogik nutqni, o'zbekcha to'g'ri talaffuzni, matnni undagi so'z va so'z shakllari talaffuziga e'tibor bergan holda o'qishni o'rgatish, ayni paytda yoshlarni og'zaki nutqqa tayyorlash masalalarida ishlarni notugal bajarish, muammoga bir tomonlama yondashishdan iborat jiddiy metodik kamchiliklar mavjud. Dialogik nutq o'stirishdan ko'zlanadigan maqsad, bir tomondan, o'quvchilarga o'zbek tilida o'zaro so'zlashishni o'rgatish, ularni hayotdagi muloqotga tayyorlash, ikkinchidan, ularga muloqot odobi, madaniyatini singdirish, uchinchidan, nutqning ushbu shakli doirasida qo'llanadigan leksik va grammatik materiallarni faollashtirishdan iborat [4].

### XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyliklarini o'zbek tili dars jarayonida va darsdan tashqari so'zlar bilan – o'quv qurollari, o'quv jihozlari, kishilar, uy hayvonlari, oziq-ovqatlar, kiyim, uy jihozlari, tabiatda uchraydigam hodisalar, mebellar, turli xil mahsulot, meva va sabzavot nomlari bilan boyitib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'quvchilar lug'atining boyitilishi esa ularning monologik (yakkanutq) va dialogik (jufnutq) nutqlarining rivojlanishiga asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bulakbayeva Sh. Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ-kognitiv asosda qiyosiy o'rgatish. ped. fanl bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. Avtoref. – Samarqand, 2019.
2. Salisheva Z. O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqining rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida). ped. fanl bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
3. Po'latova.D, Turdiyeva.D, Jo'rayeva.M. Boshlang'ich sinf oquvchilari uchun ingliz tilini o'qitish metodikasi // JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2023, II. – 164 b.
4. Muxitdinova X. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 170 b.
5. Salisheva Z. Monologik nutqning funksional va psixolingvistik xususiyatlari // Foreign languages in Uzbekistan, 2021, 5(40). – B. 69-87.
6. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. –242 b.
7. Bakiyeva X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. ped. fanl bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019.
8. Shamsiyeva M. Bilingval bolalar nutqining psixolingvistik tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. avtoref. – Andijon, 2022.